



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2024-yil yanvar-may*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel. 76-225-65-74*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2024-yil 1-iyun holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 5 117 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 71 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 5 046 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2024-yilning yanvar-may oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 8 268,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 109,5 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 259,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,2 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 8 008,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 109,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 750,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 115,9 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar-may oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	8268,5	109,5
Termiz sh.	1516,3	108,1
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	359,0	112,5
Angor	405,1	108,8
Bandixon	132,5	112,1
Boysun	341,0	109,6
Muzrabot	369,0	116,1
Denov	1726,0	106,7
Jarqo'rg'on	465,7	110,6
Qumqo'rg'on	349,1	113,1
Qiziriq	368,3	110,4
Sariosiyo	319,2	115,7
Termiz	170,4	113,7
Uzun	388,3	110,1
Sherobod	492,8	108,7
Sho'rchi	865,8	109,0


2024-yilning yanvar-may oyida 2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan viloyatning Muzrabot (116,1 %), Sariosiyo (115,7 %) va Termiz (113,7 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-may)



So'ngi 5 yillikda (2020- 2024-yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2023-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2022- yilning mos davriga nisbatan 121,7 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda) (2023-yil, 2024-yil yanvar-may oylari)



2024-yilning yanvar-may oyida o'sish sur'ati **109,5 %** ni tashkil qildi.

Ulushi, foizda




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumani 20,9 % bilan 1 726,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, Bandixon tumani 1,6 % bilan 132,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning mos davriga nisbatan, chakana savdo tovarlar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.

Hajmi, mlrd. so'm






Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi 2024-yilning yanvar-may oylarida statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 8 008,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 9,4 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 96,9 % ni tashkil etdi.

Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 13,2 % ga oshdi va 259,8 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 3,1 % ulushiga to'g'ri keldi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)





 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (99,5 %), Boysun (99,4 %) va Angor (99,2 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 3,1 % ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz sh (6,7 %), Denov (5,1%), Sherobod (2,7 %) va Jarqo'rg'on (2,6 %) tumanlarida kuzatildi.

3,1 %

96,9 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma’lumot, *ming so’mda*



2024-yilning yanvar-may oyi holatiga o‘rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2 866,6 ming. so‘mni (2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 106,9 %) tashkil etdi.


Ushbu ko‘rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (7 495,4 ming. so‘m), Denov (4 096,8 ming. so‘m) va Sho‘rchi (2 966,5 ming. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.



Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (ozuq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati (2024-yil yanvar-may), foizda



Dehqon bozorlari



Chorva bozorlari

Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2023-yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1750,5	115,9
Termiz sh.	132,0	113,2
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	171,1	115,7
Angor	58,9	112,7
Bandixon	88,8	111,5
Boysun	111,2	126,6
Muzrabot	178,3	136,1
Denov	172,8	103,8
Jarqo'rg'on	97,8	125,5
Qumqo'rg'on	102,7	119,3
Qiziriq	129,2	120,6
Sariosiyo	147,0	129,3
Termiz	43,9	116,3
Uzun	121,4	105,9
Sherobod	53,4	93,7
Sho'rchi	142,0	105,6


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tarihdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari (2024-yil yanvar-may)



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2024-yil yanvar-may)



Viloyat bo'yicha 2024-yilning yanvar-may oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 1 750,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2023-yilning yanvar-may oyiga nisbatan 115,9 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 826,5 mlrd. so'mni (120,3 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 924,0 mlrd so'mni tashkil etdi (112,2 %).

2024-yilning yanvar-may oyida tumanlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 826,5 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (399,2 mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari 399,2 mlrd. so'm  48,3 %	Non va non mahsulotlari 96,0 mlrd. so'm  11,6 %	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 80,5 mlrd. so'm  9,7 %
Tovuq go'shti 25,2 mlrd. so'm  3,1 %	Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 43,2 mlrd. so'm  5,2 %	Tuxum 26,9 mlrd. so'm  3,3 %
Ziravorlar 18,7 mlrd. so'm  2,3 %	Sut va sut mahsulotlari 26,0 mlrd. so'm  3,2 %	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak 13,1 mlrd. so'm  1,6 %
Tuzlamalar 21,9 mlrd. so'm  2,6 %	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari 17,7 mlrd. so'm  2,1 %	Nooziq-ovqat tovarlar 58,7 mlrd. so'm 7,0 %

2024-yilning yanvar-may oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 924,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 669,4 mlrd. so'm, qo'y va echkilar – 244,4 mlrd. so'mni, otlar – 7,7 mlrd. so'mni, parrandalar – 2,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>443,8 mlrd. so'm</p>  <p>48,0 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>128,1 mlrd. so'm</p>  <p>13,9 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>97,5 mlrd. so'm</p>  <p>10,6 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>207,0 mlrd. so'm</p>  <p>22,4 %</p>	<p>Otlar</p> <p>7,7 mlrd. so'm</p>  <p>0,8 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>37,4 mlrd. so'm</p>  <p>4,0 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>1,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>1,0 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,5 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>
<p>Qushlar</p> <p>0 mlrd. so'm</p>  <p>%</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2024-yil 1-iyun holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 1 444 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 443 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar – may oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	220,6	107,4
Termiz sh.	85,4	108,0
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	5,8	109,6
Angor	6,7	108,7
Bandixon	1,8	103,6
Boysun	4,9	108,1
Muzrabot	5,0	107,4
Denov	33,9	103,0
Jarqo'rg'on	13,6	111,9
Qumqo'rg'on	5,3	108,8
Qiziriq	4,5	111,2
Sariosiyo	11,9	112,8
Termiz	16,9	100,7
Uzun	6,2	108,8
Sherobod	9,9	106,1
Sho'rchi	8,8	115,0

2024-yilning yanvar-may oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 220,6 mlrd. so'mga yetdi. 2023-yilning mos davriga nisbatan 7,4 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 99,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	500,7	100,0
Termiz sh.	157,6	31,5
tumanlar:		
Oltinsoy	1,8	0,4
Angor	11,0	2,2
Bandixon	0,2	0,0
Boysun	1,3	0,2
Muzrabot	0,6	0,1
Denov	271,0	54,1
Jarqo'rg'on	27,9	5,6
Qumqo'rg'on	1,5	0,3
Qiziriq	1,5	0,3
Sariosiyo	4,0	0,8
Termiz	7,9	1,6
Uzun	0,5	0,1
Sherobod	2,1	0,4
Sho'rchi	11,8	2,4


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirganda eng yuqori hajm Denov tumani (271,0 mlrd. so'm) va Termiz shahri (157,6 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2024-yilning yanvar-may oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 345,5 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 51,6 % ga kamaydi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 83,2 mlrd. so'm (o'sish sur'ati – 28,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 262,3 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati –62,4 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2024-yilning yanvar-may oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 290,2 mlrd. so‘mni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 8,5 % ga o‘ydi.

Savdo aylanmasi va ulushi

12,0 %

274,2 mlrd. so‘m

Yirik korxonalar

88,0 %

2 016,0 mlrd. so‘m

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 2 016,0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 107,2 % ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 88,0 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

2024-yil 1-iyun holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 2 027 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 19 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 2 008 tani tashkil qildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar Angor (321,4 %) , Jarqo'rg'on (180,1 %) va Qumqo'rg'on (137,0 %) tumanlarida kuzatildi.

	Jami mlrd. so'm	2023-yil yanvar- may oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	2290,2	108,5
Termiz sh.	545,8	112,4
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	84,5	147,9
Angor	54,5	107,3
Bandixon	168,7	112,8
Boysun	9,7	102,1
Muzrabot	95,0	104,2
Denov	745,9	109,8
Jarqo'rg'on	67,9	106,3
Qumqo'rg'on	103,5	119,2
Qiziriq	16,9	102,0
Sariosiyo	45,6	102,5
Termiz	121,2	107,0
Uzun	24,5	65,4
Sherobod	92,4	104,4
Sho'rchi	114,1	83,7